



KIMYO FANINI O'QITISHDA A4 FORMAT METODIDAN FOYDALANISHNING SAMARASI

Hajiyeva Gulora Erkaboyevna

TTA Urganch filiali tabiiy fanlar kafedrasi
kimyo fani bosh oqituvchisi

Annotatsiya: Ush bu maqolada o`quvchilarga kimyo fanidan bilim berish bilan birga, ularga yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib, darsni samaradorligini oshirish, u bilan bog`liq kimyo fani darslarida o`quvchilarning savodxonligini oshirish ko`zda tutilgan.

Kalit so`zlar: “A4 format”, interfaol metodlar, ta`lim, tarbiya, jamiyat, davlat, kasb, kuch, aql-zakovat, ilm, zamonaviy rivojlanish tendentsiyalari, kasbiy mahorat, og`zaki va ko`satmali metodlar, didaktika.

Ta`lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyatli ravishda tadbiq etish har bir fan o`qituvchisining maxsus bilim va ko`nikmalarga hamda pedagogik amaliyotda zarur bo`ladigan metodik tayyorgarlikka ega bo`lishini taqozo etadi.

Ta`lim sifatini belgilovchi omillarning asosiyalaridan biri o`qituvchi-pedagoglardir. O`qituvchi-pedagoglarning ta`lim jarayonini sifatli tashkil etishdagi ijodkorligi, izlanuvchanligi, pedagogik mahoratlarini baholab borish va mehnatlariga yarasha moddiy va ma`naviy rag`batlantirib borish ta`lim mazmuni va sifat ko`rsatkichlarini oshirishning asosiy elementlaridan biridir.

Bunda o`qituvchi-pedagoglar o`z bilimlarini oshirib, pedagogik texnologiya metodlarini o`zlashtirib olmoqdalar va ulardan o`z kasbiy faoliyatida foydalanmoqdalar.

Ilg`or pedagogik texnologiya bo`yicha o`tiladigan darsni o`qituvchining o`zi va kasbdoshlari tomonidan tahlil qilishi bo`yicha fikr va mulohazalar muhim rol o`ynaydi. Bunday dars mashg`ulotlarini uyushtirishda faqat bilim bayon qilinib qolmay, balki uning mazmuni yoritiladi, talabalarning shaxsiy – kasbiy qobiliyatlari shakllantiriladi. Demak, har bir dars qiziqarli, ijodiy izlanuvchanlik va mustaqillik asosida qurilishi lozim. Bunda darsni to`g`ri tahlil qilish o`qituvchini yuksaklikka erishishga va o`z ustida ishlashga undaydi, istiqbolli natijalarni ilg`ay olishni o`rgatadi hamda dars samaradorligini oshiradi.


Zamonaviy o`qituvchi dars jarayonida “aktyor” emas, aksincha “rejissiyor” bo`lishi kerakligini anglashi lozim. O`qituvchi o`z o`quvchilarini fanga ijodkorlik nuqtai nazari bilan qarashga o`rgatishi lozim. Hozirgi maktabda o`tiladigan matematika darsliklarining yangi nashri chop etildi. Bu nashr qilingan darsliklar o`quvchilarni yangicha fikrlash, mantiqiy fikrlashga o`rgatuvchi va undovchi sifatida xizmat qilmoqda. Shu bilan bir qatorda o`qituvchi ham o`quvchilarni dunyoqarashini, fikrlash doirasini kengaytirish, ularda izlanuvchanlik xususiyatlarini shakllantirishi va albatta,

yangi pedagogik texnologiya usullaridan foydalangan holda darsni tashkil etishi kerak bo'ladi. Buning uchun esa u, bir nechta yangicha ta'lim usullarini bilishi kerakma'naviy sifatlarni shakllantirish, o'quvchi bilimini nazorat qilish hamda baholash o'qituvchidan yuksak mahorat va tezkorlik talab qiladi.

Interfaol metodlar ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuqori natejalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Dars mobaynida ma'lum nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazish, unda ayrim faoliyat yuzasidan ko'nikma va malaka hosil qilish.

O'qituvchi darsda qo'llay olishi mumkin bo'lgan bir nechta metodlarni sanab o'tamiz: Klaster, Mustaqil xat, Harakatli ma'ruba, O'zaro ta'lim, "Bilaman,Bilishni istayman, Bilib oldim", Bahs- Munozara, Hamkorlikda izlanish, A4 format, Bog'la metodi va boshqalar.

A4 format metodi- bu shundan iboratki bu metod uchun hech qanday kompyuter, doska kerak bo'lmaydi va bu metod orqali o'quvchilarni o'ylashga va fikrlashga undash uchun xizmat qiladi. A4 format metodi orqali o'quvchilar o'tilgan mavzularni eslab olishadi va takrorlab olish imkoniyatiga ham ega bo'ladilar.



1.Rasm. O'tilganlarni takrorlash maqsadida o'quvchilarni 3 ta guruhi.

"A4 formati" metodida qanday metod? "A4 formati" metodi uchun bizga oddiygina A4 formatidagi 3 dona oq list kerak bo'ladi. O'qituvchi darsga kirganidan

so'ng o'tilganlarni takrorlash maqsadida o'quvchilarni 3 ta guruhga bo'ladi va har bir guruhga bir dona A4 formatdagi listni beradi.

O'qituvchi metod shartlarini o'quvchilarga tushuntiradi. Bu metod sharti shundan iboratki, har bir guruh qatnashchisi o'tilgan mavzularga oid bir dona formula yoki bir dona ma'lumotni yozadi va 2 chi qatnashchiga beradi, ikkinchi qatnashchi ham shu tariqa davom etadi. Bunda har bir yozilgan ma'lumot qayta yozilmaslik sharti ham kiritiladi. Qaysi guruh birinchi bu vazifani tez va takrorlanmas bajarsa shu guruh g'olib bo'ladi. Bu metod orqali o'quvchilar nafaqat mavzuni takrorlaydilar, balki o'zlarining yodlaridan chiqgan ma'lumotlarni ham qayta eslash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Interfaol ta'lim usullari" Sh.K Shayaqubov, R.X Ayupov Toshkent-2020
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A.A., Pardaev A. Ta`limda innovatsion texnologiyalar(ta`lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). Toshkent 2008 y., 181 b.
3. Saidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. T., 2003y.
5. To'raqulov X.A. Pedagogik tadqiqotlarda axborot tizimlari va texnologiyalari.T., "Fan", 2006 y., 240 b.